

DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISHNING DEMOKRATIK TAMOYILLARI

Isayeva Nishonaxon Saydullayevna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar

Universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20952508>

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat boshqaruvini raqamlashtirishning demokratik mazmuni va asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Raqamli boshqaruvda qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, hisobdorlik, fuqarolar ishtiroki, raqamli imkoniyatlardan teng foydalanish, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi hamda davlat xizmatlarini fuqarolar ehtiyojlariga yo'naltirish tamoyillarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, raqamlashtirish, demokratik tamoyillar, qonuniylik, ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik, fuqarolar ishtiroki, raqamli tenglik, shaxsga doir ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, elektron davlat xizmatlari.

Davlat boshqaruvini raqamlashtirish zamonaviy siyosiy taraqqiyotning davlat institutlari, fuqarolar va jamiyat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim yo'nalishlaridan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga kirib kelishi davlat organlari faoliyatini tashkil etish, siyosiy qarorlar haqidagi axborotni jamoatchilikka yetkazish va fuqarolar bilan muloqot olib borish shakllarini yangilaydi. Raqamlashtirishning demokratik mazmuni texnologik vositalardan fuqarolar huquqlarini ta'minlash, jamoat manfaatlarini hisobga olish hamda davlat organlarining jamiyat oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish yo'lida foydalanishda namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning demokratik mazmuni, avvalo, davlat organlari faoliyatining ochiqligi bilan bog'liq. Qarorlar, davlat dasturlari, ko'rsatiladigan xizmatlar, sarflanadigan mablag'lar va faoliyat natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron shaklda e'lon qilinishi fuqarolarga boshqaruv jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Ochiqlik axborotning rasmiy manbada joylashtirilishi bilangina to'liq ta'minlanmaydi, ma'lumotlarning ishonchliligi, o'z vaqtida yangilanishi, tushunarli shaklda taqdim qilinishi va ulardan amalda foydalanish imkoniyati ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga milliy qonunchilikda ham davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ochiqlikning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanganligini alohida qayd etish lozim [1].

Raqamlashtirish davlat organlarining hisobdorligini ta'minlash uchun ham zarur axborot muhitini shakllantiradi. Elektron hisobotlar, murojaatlarni kuzatish tizimlari va faoliyat natijalarining ochiq e'lon qilinishi davlat organi tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan jamoatchilikka tushuntirish berish imkoniyatini kengaytiradi. Hisobdorlik mazmunida axborot taqdim qilish, qarorlarning sabablarini asoslash, bildirilgan savol va e'tirozlarga javob berish hamda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan amaliy choralar ko'rish o'zaro bog'lanadi. Shu tariqa raqamli vositalar davlat organlari faoliyati bilan uning jamoatchilik oldidagi siyosiy va huquqiy mas'uliyati o'rtasidagi aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini raqamlashtirish fuqarolarning siyosiy va boshqaruv jarayonlaridagi ishtirok shakllarini ham kengaytiradi. Jumladan, elektron murojaatlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining onlayn muhokamasi, jamoaviy tashabbuslar va raqamli so'rovlar orqali

fuqarolar davlat organlariga o'z takliflari, ehtiyojlari hamda munosabatlarini yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonlik huquqshunos Sh.Y.Jurayev elektron boshqaruvni davlat organlari faoliyatida internet resurslaridan foydalanish, ijro hokimiyati ochiqqligini kuchaytirish va davlat xizmatlarini aholi ehtiyojlariga mos tashkil qilish bilan bog'liq jarayon sifatida tahlil qiladi [2,31]. Ushbu talqin raqamli boshqaruvning demokratik xususiyati davlat va fuqaro o'rtasidagi muloqotning muntazamligi hamda qayta aloqa mexanizmlarining ishlashida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Raqamli ishtirokning demokratik ahamiyati fuqarolar tomonidan bildirilgan fikr va takliflarning boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan belgilanadi. Elektron platformada fikr qoldirish yoki murojaat yuborishning o'zi fuqarolarning mazmunli ishtirokini to'liq ifodalamaydi. Davlat organlari kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqishi, ularning qabul qilinishi yoki rad etilishi sabablarini tushuntirishi va muhokama natijalarini ochiq e'lon qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunida jamoatchilik muhokamasi, eshituvi, monitoringi hamda davlat organlariga murojaat va so'rovlar yuborish jamoatchilik nazoratining muhim shakllari sifatida mustahkamlangan [3].

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning demokratik mazmuni elektron imkoniyatlardan teng foydalanish masalasini ham qamrab oladi. Davlat xizmatlari, rasmiy axborot va ishtirok platformalarining raqamli shaklga o'tkazilishi turli hududlarda yashovchi, ijtimoiy holati va raqamli ko'nikmalari turlicha bo'lgan fuqarolar uchun bir xil imkoniyat yaratishi kerak. Texnik infratuzilma, internetga ulanish, raqamli savodxonlik yoki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulayliklar yetarli bo'lmagan sharoitda raqamli vositalardan foydalanish doirasi torayadi. Shu sababli demokratik raqamlashtirish fuqarolarning davlat xizmatlari va boshqaruv axborotidan foydalanishini ularning yashash joyi, ijtimoiy mavqeyi yoki texnologik ko'nikmalariga haddan tashqari bog'lab qo'ymaslikni talab etadi.

Raqamlashtirish jarayonida qonuniylik, shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi va axborot xavfsizligi demokratik boshqaruvning ajralmas shartlari hisoblanadi. Davlat organlari tomonidan ma'lumotlarning yig'ilishi va qayta ishlanishi fuqarolarning huquqlari, qonuniy manfaatlari hamda shaxsiy hayoti himoyasi bilan muvofiqlashtirilishi lozim. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunda elektron hukumat faoliyatining qonuniylik, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi, axborot xavfsizligi hamda elektron xizmatlardan teng foydalanish kabi asosiy tamoyillari belgilangan. Ushbu qoidalar davlat boshqaruvini raqamlashtirishning demokratik mazmuni ochiqlik, fuqarolar ishtiroki va qulaylik bilan bir qatorda huquqlarni himoya qilish hamda davlat organlarining mas'uliyatli faoliyatini ta'minlashda ifodalanishini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, davlat boshqaruvini raqamlashtirishning demokratik xususiyati mazkur jarayonning qanday siyosiy-huquqiy tamoyillarga tayanishiga bog'liq. Raqamli tizimlar davlat organlari faoliyatiga joriy etilganda fuqarolarning huquqlari, jamoat manfaatlari va davlat hokimiyatining mas'uliyati o'rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur. Shu sababli qonuniylik, ochiqlik, hisobdorlik, fuqarolar ishtiroki, raqamli imkoniyatlardan teng foydalanish, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi hamda davlat xizmatlarini fuqarolar ehtiyojlariga yo'naltirish raqamli boshqaruvning asosiy demokratik tamoyillarini tashkil etadi.

1. Qonuniylik tamoyili. Davlat organlarining raqamli muhitdagi har bir harakati qonunchilikda belgilangan vakolat, tartib va javobgarlik doirasida amalga oshirilishi lozim.

Axborot tizimlari orqali ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, idoralar o'rtasida uzatish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. Qonuniylik tamoyili raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma'muriy ixtiyorning chegaralarini belgilaydi hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini asossiz aralashuvlardan himoya qiladi.

O'zbekistonlik huquqshunos G.K.Shagilova elektron hukumat faoliyatida qonuniylik, javobgarlik va samaradorlik tamoyillarining huquqiy mustahkamlanishini ishonchli, shaffof va fuqarolar uchun qulay boshqaruv tizimini yaratishning muhim sharti sifatida baholaydi [4,6-7]. Tadqiqotchining yondashuvida raqamli boshqaruvning barqarorligi texnik infratuzilma bilan bir vaqtda, davlat organlarining vakolati, axborotdan foydalanish tartibi va javobgarlik choralarining aniq belgilanishiga tayanadi.

2. Ochiqlik va shaffoflik tamoyili. Raqamlashtirish davlat organlarining qarorlari, dasturlari, xizmatlari va faoliyat natijalari haqidagi axborotni jamoatchilikka o'z vaqtida yetkazish imkoniyatini yaratadi. Ochiqlik ma'lumotning rasmiy elektron manbalarda mavjudligini, shaffoflik esa uning mazmuni, kelib chiqishi va boshqaruv qarorlariga ta'sirini tushunish imkoniyatini anglatadi. Rasmiy axborot to'liq, ishonchli, muntazam yangilanadigan va fuqarolar uchun tushunarli shaklda taqdim etilgandagina ushbu tamoyil amaliy mazmun kasb etadi.

Davlat organlarining ochiqligi fuqarolarga boshqaruv faoliyatini kuzatish, qabul qilinayotgan qarorlarning asoslarini tushunish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Elektron hukumat vositasida davlat apparati faoliyatining ochiqligi ta'minlanganda boshqaruv samaradorligi, aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchi va xizmatlarning shaffofligi ortadi, korrupsiya xavfi esa kamayadi. Shu jihatdan ochiqlik davlat organlari haqidagi axborotni e'lon qilish bilan cheklanmay, ularning faoliyatiga nisbatan jamoatchilik ishonchini shakllantiruvchi muhim siyosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

3. Hisobdorlik tamoyili. Hisobdorlik davlat organlari va mansabdor shaxslarning raqamli tizimlarda amalga oshirgan harakatlari, qabul qilgan qarorlari hamda ko'rsatgan xizmatlari yuzasidan izoh va javob berish majburiyatini ifodalaydi. Elektron qaydlar, raqamli hujjat aylanishi va murojaatlarning ko'rib chiqilish holatini kuzatish imkoniyati boshqaruv jarayonida mas'ul subyektni aniqlashni osonlashtiradi. Hisobdorlikning amaliy ta'siri aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, jamoatchilik savollariga asoslantirilgan javob berish va qonunda nazarda tutilgan javobgarlik choralarini qo'llash orqali namoyon bo'ladi.

Raqamli hisobdorlik davlat organi faoliyatining izchil hujjatlashtirilishini ham talab etadi. Qarorni kim tayyorlagani, qaysi ma'lumotlar asos qilib olingani, ijro uchun kim mas'ul ekani va qanday natijaga erishilgani elektron tizimda qayd etilishi boshqaruv mas'uliyatining aniq taqsimlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan hisobdorlik tamoyili davlat hokimiyatining fuqarolar oldidagi siyosiy mas'uliyati bilan ma'muriy ijro intizomini birlashtiradi.

4. Fuqarolar ishtiroki tamoyili. Raqamli boshqaruv fuqarolarga davlat organlari bilan tezkor aloqa qilish, murojaat yuborish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama etish va jamoat tashabbuslarini ilgari surish imkoniyatini berishi kerak. Ishtirok tamoyilining demokratik qiymati fuqarolarning fikr bildirish imkoniyati hamda ushbu fikrlarning qarorlarni tayyorlash jarayonida ko'rib chiqilishi bilan belgilanadi. Davlat organining kelib tushgan takliflarga munosabati, qabul qilingan va rad etilgan fikrlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berishi raqamli muloqotni mazmunli siyosiy ishtirok shakliga aylantiradi.

Fuqarolarning raqamli boshqaruv vositalari orqali siyosiy va boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishi fuqarolik jamiyati rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir. Bu borada M.Qirg'izboyev: "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini amalga oshirish bilan uzviy ravishda bog'liq holda kecha boshladi", deb ta'kidlaydi [5,202].

Fuqarolarning raqamli maydondagi ishtiroki jamoatchilik fikrining shakllanishi va davlat institutlari faoliyatiga baho berish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonlik sotsiolog X.M.Burxanov raqamli jamiyatdagi milliy saytlar transformatsiyasini demokratik islohotlarning chuqurlashuvi, jamoatchilik fikrining shakllanishi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida tadqiq etadi [6,9-10]. Ushbu yondashuv raqamli ishtirokning erkin fikr almashinuvi, ishonchli axborot muhiti va fuqarolarning ongli siyosiy faolligi bilan uzviy aloqadorligini anglatadi.

5. Raqamli imkoniyatlardan teng foydalanish tamoyili. Davlatning elektron axborot resurslari, xizmatlari va ishtirok platformalari barcha fuqarolar uchun teng darajada ochiq bo'lishi zarur. Fuqaroning yashash hududi, ijtimoiy holati, yoshi, sog'lig'i, tili yoki raqamli ko'nikmalari davlat xizmatidan foydalanish imkoniyatini cheklovchi omilga aylanmasligi kerak. Mazkur tamoyil internet infratuzilmasini kengaytirish, platformalarni imkoniyati cheklangan shaxslarga moslashtirish, xizmatlarning sodda interfeysini yaratish va zarur hollarda an'anaviy xizmat ko'rsatish kanallarini saqlab qolishni nazarda tutadi.

Elektron hukumatni rivojlantirishda hududlarning infratuzilmaviy imkoniyatlari, internet tarmog'ining qamrovi va aholining raqamli tayyorgarligi hisobga olinishi zarur. Raqamli tenglik barcha fuqarolarga bir xil elektron platformani taklif etish bilangina ta'minlanmaydi. Hududiy sharoit, texnik imkoniyatlar va foydalanuvchilarning raqamli ko'nikmalariga mos xizmat ko'rsatish shakllari yaratilganda elektron xizmatlardan real va barqaror foydalanish imkoniyati kengayadi.

6. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tamoyili. Davlat organlari raqamli xizmatlarni ko'rsatish jarayonida fuqarolarga oid katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'adi, saqlaydi va qayta ishlaydi. Bunday ma'lumotlardan foydalanish aniq maqsadga, qonuniy asosga va belgilangan vakolat doirasiga ega bo'lishi lozim. Fuqaro o'zi haqidagi qanday ma'lumotlar saqlanayotgani, ulardan nima maqsadda foydalanilayotgani va qaysi tashkilotlarga taqdim etilishi haqida axborot olish huquqiga ega bo'lishi demokratik raqamli boshqaruvning muhim shartidir.

Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasi fuqarolarning raqamli davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir qiladi. Ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, belgilangan maqsaddan tashqari ishlatilishi yoki fuqaroni uning xabarisiz kuzatishga xizmat qilishi davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ishonchni zaiflashtiradi. Shu sababli ma'lumotlarni yig'ish hajmini zarur darajada cheklash, ulardan foydalanish muddatini belgilash va fuqaroning o'z ma'lumotlarini tuzatish yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda o'chirishni talab qilish imkoniyatini ta'minlash lozim.

7. Axborot xavfsizligi tamoyili. Raqamli davlat boshqaruvi axborot tizimlarining barqaror ishlashi, ma'lumotlarning yaxlitligi va ruxsatsiz kirishdan himoyalanganligiga tayanadi. Kiberhujum, ma'lumotlarning buzilishi yoki davlat axborot tizimlarining ishdan chiqishi xizmatlar uzluksizligiga, boshqaruv qarorlarining ishonchliligiga va fuqarolarning huquqlariga zarar yetkazishi mumkin. Axborot xavfsizligi texnik himoya choralari, tashkiliy

tartiblarni, xodimlarning mas’uliyatini va xavf yuzaga kelgan holatlarda tezkor harakat qilish mexanizmlarini birlashtiradi.

Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi axborot mazmunining ishonchligi, foydalanuvchilarning axborot bilan ishlash ko’nikmalari va milliy raqamli makonning barqarorligi bilan uzviy bog’liqdir. Shu jihatdan axborot xavfsizligini faqat texnik himoya choralari tenglashtirish yetarli emas. U jamoatchilik ishonchi, axborot madaniyati va raqamli institutlarning ijtimoiy barqarorligiga ta’sir ko’rsatadigan keng qamrovli boshqaruv masalasi hisoblanadi.

8. Davlat xizmatlarining fuqarolar ehtiyojlariga yo’naltirilganligi tamoyili. Raqamli xizmatlar davlat organining ichki tuzilishidan kelib chiqib emas, fuqaroning hayotiy ehtiyoji va muayyan xizmatni olish jarayonidagi qulayligi asosida tashkil etilishi kerak. Foydalanuvchidan davlat axborot tizimlarida mavjud bo’lgan ma’lumotlarni takroran talab qilmaslik, murojaat bosqichlarini qisqartirish, xizmat holatini kuzatish va natijani elektron shaklda olish imkoniyatini yaratish ushbu tamoyilning amaliy ifodasidir. Davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligi hokimiyat organlari bilan aholi o’rtasidagi muloqotni rivojlantirish va boshqaruv jarayonlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi. Xizmatlarning sodda, tezkor va tushunarli shaklda tashkil etilishi fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini yengillashtiradi, ortiqcha ma’muriy bosqichlarni qisqartiradi hamda murojaatlarning natijadorligini oshiradi.



Ko’rib chiqilgan demokratik tamoyillar o’zaro bog’liq tizimni tashkil etadi. Qonuniylik ma’lumotlardan foydalanish va boshqaruv vakolatlarining huquqiy chegaralarini belgilasa, ochiqlik va hisobdorlik davlat organlari faoliyatining jamoatchilik tomonidan kuzatilishini ta’minlaydi. Fuqarolar ishtiroki raqamli muloqotning siyosiy mazmunini kuchaytiradi, teng foydalanish va ehtiyojlarga yo’naltirilganlik xizmatlarning ijtimoiy qamrovini kengaytiradi. Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligi esa raqamli boshqaruvga bo’lgan ishonchni saqlash uchun zarur huquqiy va institutsional muhitni shakllantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-son "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – № 19. – 209-modda.
2. Жураев.Ш.Ю. Ўзбекистонда “электрон ҳукумат” тушунчаси моҳияти ва хорижий тажриба // Юриспруденция. – 2023. – № 1. – Б. 28–37.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-son "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2018. – № 03/18/474/1062.
4. Shagilova.G.K. Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirishning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari: yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati / Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti. – Nukus, 2024. – B. 6–7.
5. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик / М. Қирғизбоев. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 202.
6. Burxanov.X.M. Raqamli jamiyatda milliy saytlar transformatsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari: sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati / O'zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent, 2025. – B. 9–10.